

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-aprel



Xizmatlar sohasi

Raqamlar:

2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi – **3210,4 mlrd.so'm**.

Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **32,3 %** ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi **1120,8 ming so'mni** tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda.

Natijada, Viloyatimizda 2018 yil yanvar - aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 3210,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi.


Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, yashash va ovqatlanish xizmatlari, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar va ijara xizmatlarida kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2018 yil yanvar-aprel oylari uchun)


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Jami xizmatlar	3210,4	103,1	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	80,9	123,0	2,5
moliyaviy xizmatlar	339,3	132,3	10,6
transport xizmatlari	898,9	100,4	28,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmati</i>			
yashash va ovqatlanish xizmatlari	155,6	101,6	4,8
savdo xizmatlari	1070,9	94,7	33,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	117,2	102,7	3,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	63,7	102,6	2,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	43,3	110,9	1,3
ijara xizmatlari	103,8	103,8	3,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	78,6	100,1	2,4
shaxsiy xizmatlar	94,2	100,3	2,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	56,4	136,3	1,8
boshqa xizmatlar	107,6	123,5	3,4

Hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha – 136,3 %, moliyaviy xizmatlar bo'yicha – 132,3 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha – 123,0 %, boshqa xizmatlar bo'yicha – 123,5 % ga erishildi. Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (33,4 %), transport xizmatlari (28,0 %) tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2018 yil yanvar-aprel oylari uchun)



2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (36,3 %), moliyaviy xizmatlar (32,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (23,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (10,9 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1120,8 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 101,9 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmlarining o'sish sur'ati
(2017 yilning yanvar–apreliga nisbatan)



Viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Mas'ul: M.Tastanbekov
Tel:230-86-74